



UDK: 1/14.11

Dildora AXATOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., PhD
E-mail: axatovadildora795@gmail.com

PhD S.A. Azamova taqrizi asosida

**ABU NASR AL-FARABI AND THE EASTERN PERIPATETIC TRADITION — METAPHYSICS, POLITICAL
THOUGHT AND THE THEORY OF THE IDEAL SOCIETY**

Annotation

This article analyzes the emergence of the Eastern Peripatetic tradition through the legacy of Abu Nasr al-Farabi, focusing on his ideas in metaphysics, logic, politics, and the concept of the virtuous society. Special attention is paid to al-Farabi's synthesis of Greek philosophy (especially Aristotle and Plato) with Islamic thought and spirituality, as well as his scholarly distinction between philosophy and religion.

Key words: Abu Nasr al-Farabi, Eastern Peripatetic school, metaphysics, logic, political philosophy, theory of society, Aristotle, Plato, science and religion, Eastern philosophy.

**АБУ НАСР АЛЬ-ФАРАБИ И ВОСТОЧНАЯ ПЕРИПАТЕТИЧЕСКАЯ ТРАДИЦИЯ — МЕТАФИЗИКА,
ПОЛИТИЧЕСКАЯ ИДЕЯ И ТЕОРИЯ СОВЕРШЕННОГО ОБЩЕСТВА**

Аннотация

В данной статье рассматривается формирование восточной перипатетической традиции и философское наследие Абу Насра аль-Фараби, его взгляды на метафизику, логику, политику и концепцию совершенного общества. Особое внимание уделяется роли Фараби в синтезе греческой философии (главным образом, Аристотеля и Платона) и исламского мировоззрения, а также его разграничению религии и философии на научной основе.

Ключевые слова: Абу Наср Аль-Фараби и восточная перипатетическая традиция — метафизика, политическая идея и теория совершенного общества.

**ABU NASR FAROBIY VA SHARQ PERIPATETIK AN'ANASI — METAFIZIKA, SIYOSIY G'OYA VA
MUKAMMAL JAMIYAT NAZARIYASI**

Annotatsiya

Mazkur maqolada Abu Nasr Farobiy va Sharq peripatetik an'anasining shakllanishi, uning metafizika, mantiq, siyosat va mukammal jamiyat haqidagi qarashlarining asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Farobiyning yunon falsafasi, xususan, Arastu va Aflotun an'analari bilan islomiy tafakkur va ma'naviyatni uyg'unlashtirishdagi o'rni, shuningdek, din va falsafa o'rtasidagi farqni ilmiy asosda ajratishi ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Abu Nasr Farobiy, Sharq peripatetik maktabi, metafizika, mantiq, siyosiy falsafa, jamiyat nazariyasi, Arastu, Aflotun, ilm va din, sharq falsafasi.

Kirish. Bugungi globallashuv va intellektual yangilanish davrida jamiyat taraqqiyoti, siyosiy va ma'naviy g'oyalar tizimi, ijtimoiy-madaniy muhitda falsafaning o'rni, xususan, Sharq peripatetik an'anasining ilmiy hamda nazariy tadqiqi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish – davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biridir [1].

Davlat rahbarining “Yangi O‘zbekiston — yangi tashabbuslar va intellektual avlod mamlakati” g‘oyasi asosida, jamiyat rivoji uchun adolatli siyosiy tizim, mukammal ijtimoiy-gumanistik soha zarur ekanligiga ham urg‘u beriladi. Mazkur tadqiqot mavzusi Sharq peripatetik maktabining shakllanishi, Abu Nasr Farobiy g‘oyalari, metafizika, mantiq, siyosiy nazariya va mukammal jamiyat konsepsiyasining zamonaviy ahamiyatini tahlil qilishdan iborat. Ushbu muammoni ilmiy tahlil etish, Sharq falsafiy an‘analarini chuqur o‘rganish,

jamiyat taraqqiyotida intellektual va axloqiy tamoyillarning rolini aniqlash – tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: Sharq peripatetik an'anasining asosiy xususiyatlarini aniqlash, uning shakllanishi va nazariy tamoyillarini tahlil qilish. Farobiy falsafasida metafizika va jamiyat nazariyasining ilmiy asoslarini o'rganish, uning fozil jamiyat haqidagi qarashlarini izohlash. Sharq va islom tafakkurida ilm va din munosabatining gnoseologik mazmunini yoritish. Prezident farmonlari va dolzarb nutqlarda ilgari surilgan falsafiy g'oyalarni tadqiqot mavzusi bilan bog'lab, ularning zamonaviy ahamiyatini asoslash.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston va xalqaro miqyosda jamiyat, siyosat va falsafa sohalarida barqaror taraqqiyotning ilmiy poydevorini mustahkamlashda, intellektual avlod tarbiyasida nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sharq falsafasi va peripatetik an'ansi taraqqiyotida Abu Nasr Farobiy merosi nazariy, metodologik va madaniy jihatdan alohida ahamiyatga ega. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda, xususan O.Fayzullayev, N.Baratov, R.Nosirov, D.Fayzixodjaeva kabi olimlar Farobiyning gnoseologiya, axloqiy qarashlar, siyosiy g'oyalar

va jamiyat nazariyasiga oid ta'limotini har tomonlama tahlil qilganlar [2]. Ularning tadqiqotlarida Farobiyning ilmiy-metodologik merosi Sharq peripatetika maktabining shakllanishi va rivojida asosiy o'rin tutishi ilmiy asoslangan holda ko'rsatib berilgan.

Adabiyotlarda Farobiyning "Fozil shahar ahli qarashlari", "Ilmlarning tasnifi", "Metafizikaning maqsadlari" kabi risolalari Sharq falsafasining asosiy nazariy manbalari sifatida e'tirof etiladi. Bu asarlarda fanlar tasnifi, aqlning darajalari, bilim evolyutsiyasi, mukammal jamiyat va fazilatli rahbar haqidagi konsepsiyalar Sharq intellektual an'analarning yangi bosqichini belgilab bergani ta'kidlanadi.

Farobiyning ilmiy merosining ko'lamini ham adabiyotlarda alohida qayd etiladi. Hozirgacha uning 117 ta asari ma'lum bo'lib, ulardan 43 tasi mantiq ilmi, 11 tasi metafizika, 7 tasi axloq, 7 tasi siyosat, 17 tasi musiqa, tibbiyot va ijtimoiy fanlar, 11 tasi esa sharhlar va talqinlarga bag'ishlangan. Mashhur asarlari orasida Fusus al-Hikam ("Hikmatlar mohiyati") alohida o'rin tutadi; bu asar asrlar davomida Sharq o'quv markazlarida falsafa fani bo'yicha asosiy qo'llanma sifatida qo'llanilgan. "Ilmlar tasnifi" esa fanlarning tasnifi va ularning ichki tuzilishi haqidagi eng mukammal falsafiy risolalardan biri bo'lib, Sharqdagi ilmiy paradigmaning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. "Fozil shahar ahli qarashlari" esa ijtimoiy va siyosiy fanlar taraqqiyotiga tamol toshini qo'ygan asar hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlari – Ibn Sino, Ibn Rushd, Ibn Tufayl, Qutbiddin Sheroziy [6] – Farobiy ta'limotini davom ettirgan, uni boyitgan va yangi nazariy bosqichga ko'targan. Ayniqsa Ibn Sino Farobiyning metafizik sistemasini yangicha sharhlab, uni butun islom falsafasining asosiy intellektual oqimiga aylantirgan. Shu bilan birga, Muhammad G'azzoliy va Faxriddin Roziy [10] Farobiy ta'limotini diniy, kalomiy va gnoseologik mezonlar asosida tanqidiy qayta ko'rib chiqqan bo'lib, bu jarayon Sharq Arastuchiligi, tasavvuf va kalom o'rtasidagi murakkab ilmiy munozaralarning shakllanishiga zamin yaratgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda (Scopus, Google Scholar, Web of Science kabi platformalarida chop etilgan maqolalarda) Farobiy peripatetika an'anasining yangi talqinlari, uning metafizik qarashlarining hozirgi falsafiy jarayonlarga ta'siri, fozil jamiyat modeli va aql nazariyasining XXI asr ilmiy-falsafiy muhitidagi o'rni keng yoritilmoqda. Tadqiqotchilar Farobiy g'oyalarning zamonaviy siyosatshunoslik, epistemologiya, etik nazariya, kognitiv fanlar va ma'naviyatshunoslik yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq ekanini alohida ta'kidlaydilar.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili Farobiy merosining nafaqat o'rta asr Sharq intellektual hayotida, balki XXI asr ilmiy jarayonlarida ham dolzarbligini saqlab qolayotgan universal falsafiy tizim ekanini tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot metodologiyasi Farobiy merosini tarixiy-falsafiy, konseptual va taqqoslama yondashuvlar asosida o'rganishga tayangan. Tarixiy-falsafiy metod orqali Farobiy asarlari Sharq Uyg'onishi davri intellektual muhitida tahlil qilindi. Konseptual-tahliliy yondashuv asosida "aql", "borliq", "emanatsiya", "fozil jamiyat" kabi asosiy tushunchalarning mazmuni ochildi. Struktural va sistemali yondashuv Farobiy qarashlarining ichki mantiqiy tizimini aniqlashga xizmat qildi. Matnshunoslik tahlili orqali manbalar, tarjimalar va sharhlar o'zaro solishtirildi. Taqqoslama-falsafiy metod yordamida Farobiyning fikrlari Arastu, Aflotun, Ibn Sino, Ibn Rushd kabi mutafakkirlar qarashlari bilan qiyoslandi. Shuningdek, Scopus va Google Scholar platformalaridagi zamonaviy tadqiqotlar monitoringi olib borilib, mavzuning bugungi ilmiy diskursdagi o'rni belgilandi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida Sharq peripatetika an'anasining shakllanishi va Abu Nasr Farobiy falsafiy merosining asosiy konseptual qatlamlari tarixiy-komparativ, tekstual-analitik, ratsional va qiyosiy metodlar orqali chuqur tahlil qilindi. Farobiyning "Fozil shahar ahli qarashlari" [10], "Ilmlarning tasnifi", "Arastuning Metafizika maqsadlari" [11] kabi risolalari Sharq peripatetika maktabining gnoseologik, metafizik va siyosiy-falsafiy tuzilishini o'rganishda markaziy nazariy manba sifatida xizmat qildi.

Tahlil natijalari Farobiy ta'limotining Arastu va Aflotun qarashlarini musulmon Sharq intellektual makonida chuqur va sistematik tarzda qayta talqin qilganini ko'rsatdi. Fanlar tasnifi, aql bosqichlari, emanatsiya konsepsiyasi, mukammal jamiyat modeli va siyosiy tartibotga oid g'oyalarning barchasi Farobiyning izchil mantiqiy tuzilmasiga asoslangan holda shakllangan bo'lib, uning falsafiy tizimi ichki konseptual uyg'unlikka ega bo'lgan yaxlit nazariy platformani tashkil etadi.

Tadqiqot davomida Ibn Sino, Miskavayx, Ibn Rushd, Qutbiddin Sheroziy va Jaloliddin Davoniy kabi mutafakkirlar Farobiy g'oyalari rivojlantirganligi, ularning asarlarida Farobiy metafizikasining asosiy printsiplari yanada mukammallashtirilganligi aniqladi. Ayniqsa, "Maqasid ma ba'd at-tabi'a li-Aristutalis" ("Arastuning Metafizika maqsadlari") risolasining chuqur tahlili Farobiy tomonidan Arastu metafizikasining kategoriya, substansiya, sababiyat va mavjudlik haqidagi asosiy g'oyalari sharqlash, qayta asoslash hamda ularni yangi-falsafiy iyerarxik tizimga integratsiya qilish bosqichlarini aniq ko'rsatib berdi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar Farobiyning fanlar tasnifi va mukammal jamiyat haqidagi konsepsiyasining global falsafiy, siyosiy va ijtimoiy nazariyalar bilan uyg'un kelishini yana bir bor tasdiqladi. Uning "fozil jamiyat" modeli — adolat, ilmiy rahbarlik, fazilat va ijtimoiy uyg'unlik tamoyillariga asoslanganligi sababli — bugungi zamonaviy boshqaruv falsafasi va ijtimoiy barqarorlik konsepsiyalarida ham o'z aksini topmoqda.

Tarkibiy bo'limlar kesimidagi tahlil Farobiy merosining ko'p qatlamli tuzilishini aniq ko'rsatdi. Mantiqiy tuzilma — tasdiq, ta'rif, dalil va isbot kategoriyalarini o'z ichiga olgan bo'lib — metafizika (mavjudot iyerarxiyasi, aql nazariyasi), siyosiy-falsafiy qarashlar (fozil shahar modeli, siyosiy iyerarxiya), axloqiy konsepsiyalar (fazilat, sodat) hamda musiqa ilmi (ritm, uyg'unlik nazariyasi) bilan uzviy bog'langan.

Umuman olganda, Farobiy Sharq peripatetika maktabining konseptual asoschisi sifatida yunon falsafasining eng muhim nazariy g'oyalari yangi ilmiy paradigmda qayta tashkil etgan va Sharq falsafiy tafakkurini yangi bosqichga ko'targan mutafakkirdir. Uning nazariyalari, xususan, Arastuning Metafizika asariga bag'ishlangan sharhi, bugungi zamonaviy falsafiy diskursda ham o'z ilmiy dolzarbligini saqlab qolmoqda va universal metodologik ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotda Sharq peripatetika an'anasining shakllanishi va Abu Nasr Farobiy merosining metafizik, mantiqiy va siyosiy-falsafiy asoslari tizimli ravishda o'rganildi. "Fozil shahar ahli qarashlari", "Ilmlarning tasnifi" hamda "Arastuning Metafizika maqsadlar" risolalari asosida Farobiyning konseptual tizimi — fanlar tasnifi, aql nazariyasi, emanatsiya modeli va mukammal jamiyat haqidagi qarashlari to'liq anglashildi. Tadqiqot maqsad va vazifalari bajarildi, qo'yilgan ilmiy savollar o'z javobini topdi.

Natijalar Farobiy ta'limoti Arastu va Aflotun falsafasining Sharq muhitida qayta talqin qilinib, yangi peripatetika paradigma yaratganini ko'rsatdi. Ibn Sino, Ibn Rushd va Davoniy kabi olimlarning asarlarida Farobiy

g'oyalarning davomiyligi ham tasdiqlandi. Integratsion tahlil Farobiy merosining metafizika, mantiq, siyosatshunoslik va jamiyat nazariyasi kabi sohalarida yagona konseptual asos yaratganini ko'rsatdi.

Takliflar. Farobiy asarlarini zamonaviy sharhlar, izohli tarjimalar va ilmiy nashrlar bilan boyitish zarur. Uning peripatetik merosini oliy ta'lim dasturlarida integratsiya asosida

o'qitishni kengaytirish, shuningdek Farobiyning metafizika va siyosiy qarashlarini zamonaviy falsafiy muammolar bilan qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, mantiq, siyosat, musiqa, madaniyat va boshqaruv falsafasi kabi yo'nalishlarda multidissiplinar tadqiqotlarni davom ettirish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: PF-6108-son Farmon, 2020-yil 6-noyabr. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, 2020.
2. Fayzullayev O. Falsafa va fanlar metodologiyasi. – Toshkent: Falsafa va huquq, 2006. – B. 124–266.
3. Баратов Н. Основные принципы этики Фараби и их развитие у передовых мыслителей: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. – Ташкент, 1981. – 20 с.
4. Насыров Р. Вопросы теории познания во взглядах прогрессивных мыслителей Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1988. – 120 с.
5. Файзиходжаева Д. Е. Абу Наср Форобий ва Абу Али ибн Сино манткий исботлаш ҳақида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – 175 б.
6. Ибн Сина (Авиценна). Избранные философские произведения. – Москва: Наука, 1980. – 551 с.
7. Ибн Рушд. Рассуждение, выносящее решение относительно связи между религией и философией / пер. с араб. А. В. Сагадеева // Сагадеев А. В. Ибн Рушд (Аверроэс). – Москва: Мысль, 1973. – С. 171–199.
8. Ibn Tufeil. A novel about Haya, the son of Yakzan / transl. by I. P. Kuzmin // Selected works of thinkers of the countries of the Near and Middle East of the 9th–14th centuries. – Moscow: Publishing House of Socio-Economic Literature, 1961. – P. 329–394.
9. Qutbiddin ash-Sheroziy. Musiqiy ta'limotining ayrim xususiyatlari // San'atshunoslik masalalari. – Toshkent, 1998. – B. 139–144.
10. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. - 224 b.
11. Аль-Фараби. Историко-философские трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1985. – С.341.
12. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Forobiy>